

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 29 193 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- aprel holatiga, birlik	2025-yil 1- aprel holatiga, birlik
Farg'ona viloyati	32644	29193
Oltiariq tumani	1911	1733
Qo'shtepa tumani	1198	1045
Bag'dod tumani	1198	1052
Buvayda tumani	1316	1125
Beshariq tumani	1061	982
Quva tumani	1462	1259
Uchko'prik tumani	1646	1512
Rishton tumani	1319	1227
So'x tumani	946	883
Toshloq tumani	1548	1239
O'zbekiston tumani	1450	1280
Farg'ona tumani	1468	1272
Dang'ara tumani	1435	1204
Furqat tumani	843	742
Yozyovon tumani	848	1010
Farg'ona shahar	5555	5148
Qo'qon shahar	3454	3029
Quvasoy shahar	1241	1122
Marg'ilon shahar	2745	2329

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni](#)

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-martida 29,1 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2024- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 13 531 ta, sanoatda 6 589 ta, boshqa xizmatlarda 3 494 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 385 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



2024- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 28 005 ta, sanoatda 12 889 ta, boshqa xizmatlarda 9 459 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 9 099 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2024- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2025-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Farg'ona viloyati	1630	1641
Oltiariq tumani	93	72
Qo'shtepa tumani	82	71
Bag'dod tumani	56	71
Buvayda tumani	70	81
Beshariq tumani	60	84
Quva tumani	75	88
Uchko'prik tumani	72	67
Rishton tumani	93	59
So'x tumani	51	45
Toshloq tumani	88	84
O'zbekiston tumani	69	75
Farg'ona tumani	91	59
Dang'ara tumani	52	53
Furqat tumani	44	50
Yozyovon tumani	47	114
Farg'ona shahar	268	284
Qo'qon shahar	158	134
Quvasoy shahar	62	65

Marg'ilon shahar

99


85

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 087,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 52,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 161,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Buvayda tumani (100,0%), So'x tumani (100,0%), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg'ilon shahar (96,6%) va Furqat tumani (92,0%) shahar va tumanlar hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2 793,4 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 79,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Quvasoy shahar (98,5%),Dang'ara tumani (97,8 %) va Uchko'prik tumani (97,7%) shahar va tumanlarga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 4 303,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 67,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 138,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Oltiariq tumani (93,0 %), Beshariq tumani (92,8 %), Marg'ilon shahar (92,3 %) va Qo'qon shahar (92,5 %) shahar va tumanlarga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 4 184,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 94,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 116,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi So'x tumani (99,7 %), Quva tumani (99,5%), Buvayda tumani (99,4%) va Qo'shtepa tumani (99,3 %) shahar va tumanlar to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarish hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini \(xizmatlarini\) ishlab chiqarishdagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 6 674,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 87,3% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi So'x tumani (99,5%),Farg'ona tumani (99,2 %), Quvasoy shahar (99,1 %) va Buvayda tumani (98,9 %) tuman shaharlarga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo



aylanmasidagi ulushi dinamikasi

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 10 325,4 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 49,2 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 123,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Oltiariq tumani (87,4 %), Furqat tumani (86,5%), Yozyovon tumani (84,6%), Qo'shtepa tumani (81,2 %) va Marg'ilon shahar (85,5 %) tuman va shaharlarga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Название

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 63,9 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 46,4 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buvayda tumani – 100,0%, Beshariq tumani – 100,0 %, So'x tumani – 100%, Yozyovon tumani – 100,0%, tumanlar tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 310,1million AQSH dollarini yoki jami importning 86,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Oltiariq tumani–100,0 %, Rishton tumani – 100,0 %, So'x tumani – 100,0 %, Toshloq tumani – 100,0 tumani tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,7 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 108,5% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,9 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2024-,yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 100,3 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-mart, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,7% ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 100,4% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-mart, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,0 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 100,5 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo‘lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo‘lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
- [Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo‘lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


IV. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 37,1% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida esa 42,6 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-martida nisbatan 12,2 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 56,5 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 51,8 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 6,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 3,0 % ga yetgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 41,3 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 35,9 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 41,0% bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 37,3 %. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 3,6,% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 2,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2025- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda –


41,0 % ni, qurilishda – 6,5% ni va xizmatlar sohasida – 9,2% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,9 % ni, xizmatlar sohasida – 7,5 % ni va sanoatda – 19,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 13,2 % ni, sanoatda – 13,2 % ni va xizmatlar sohasida – 7,5 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>



Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv boshqarmasi

Ijrochi:
Sh. Axmedov
71 203-80-00 (1145)

Manzil:

